



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI
2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezlilarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qarori, 2021-yil.
2. UNESCO. *Inclusive Education: Guidelines for Policy Makers*. – Paris, 2020.
3. Bates T. *Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning*. – Vancouver: Tony Bates Associates Ltd, 2015.
4. Selwyn N. *Education and Technology: Key Issues and Debates*. – London: Bloomsbury Academic, 2016.
5. Anderson T., Elloumi F. *E-learning in the 21st Century: A Framework for Research and Practice*. – Routledge, 2004.
6. NVDA Screen Reader rasmiy sayti – www.nvaccess.org
7. Bookshare kutubxonasi – www.bookshare.org

PSIXOLOGIYADA KEKSALIK DAVRINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Komilova A.S., Burxonova U.I.

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada Keksalik davri, bu davr inson hayotining muhim bosqichi ekanligi, bu davrda ruhiy, emotsional va fiziologik o'zgarishlar. Keksalik davrida insonlar o'z hayotlariga qayta nazar tashlashi, emotsional xolati va ijtimoiy aloqalarning o'ziga xos ahamiyati haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ruhiy o'zgarishlar, emotsional holat, ijtimoiy aloqa, qabul qilish, salomatlik, izolyatsiya, hayot tajribasi, rivojlanish, o'z-o'zini anglash, qo'llab-quvvatlash, o'zgarishlar.

Psixologiya — insonning ruhiy hayoti, xulq-atvori, hissiyotlari va fikrlash jarayonlarini o'rganuvchi ilmiy soha xisoblanadi. Psixologiya insonlarning ijtimoiy, psixologik va hissiy xususiyatlarini tahlil qiladi. Bizga ma'lumki psixologiya turli yo'nalishlarga ega bo'lib bularga klinik psixologiya, ijtimoiy psixologiya va rivojlanish psixologiyasi kiradi. Bu yo'nalishlar odamlarning o'zaro munosabatlarini, muammolarini hal qilishini va ruhiy salomatlikni yaxshilashni o'rganadi. Psixologik bilimlar hayotiy vaziyatlarga, shaxsiy rivojlanishga va kasbiy faoliyatga ta'sir ko'rsatadi. Psixologiyada davrlar (yoki rivojlanish bosqichlari) inson hayotining turli bosqichlarida yuz beradigan o'zgarishlar va jarayonlarni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Ularning ahamiyati quyidagilardan iborat:

- rivojlanish tushunchasi: har bir davr o'ziga xos xarakteristikalar va vazifalarga ega bo'lib, insonning ruhiy, emotsional va fiziologik rivojlanishini tushunishda yordam beradi.

- psixologik muammolarni aniqlash: har bir davrda yuz beradigan turli muammolar va qiyinchiliklarni aniqlash, ularni hal qilishda samarali yondashuvlarni taklif etadi.

- ta'sir ko'rsatish: ruhiy rivojlanishning har bir bosqichi, kelajakdagi xulq-atvor va shaxsiyat shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, bolalik davrida olingan tajribalar kattalarda aniq belgilarni qoldirishi mumkin.

- ta'lim va tarbiya: psixologiya davrlari ta'lim va tarbiyani yaxshilashda muhim ahamiyatga ega, chunki ular yoshga mos uslub va strategiyalarni tanlashga yordam beradi.

- sog'liq va qo'llab-quvvatlash: rivojlanish davomida yuz beradigan o'zgarishlar ruhiy salomatlikni aniqlash va alohida ehtiyojlarni belgilashda muhimdir.

Psixologiyada yosh davrlarini bilish inson hayotini yaxshiroq tushunishga va sog'lom rivojlanishni ta'minlashga yordam beradi.[4]

Psixologiyada har bir davr o'z xususiyati bilan muhim bo'lganidek bu davrda keksalik davrining o'ziga xos xususiyatlarini bilish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bularga: ruhiy o'zgarish, emotsional xolatlar, ijtimoiy aloqalar, sog'liq va faoliyat, yoshlik va ulug'likni qabul qilish kabilarni bilishdan iborat.

1. Ruhiy o'zgarishlar: Keksalikda insonlar ko'pincha o'z hayotidagi mazmun va qiymatni qayta ko'rib chiqadilar. Ularda o'z-o'zini anglash va o'z tajribalarini tahlil qilish ehtiyoji kuchayadi.

2. Emotsional barqarorlik: Ba'zi keksalar his-tuyg'ularni yaxshiroq boshqarishni o'rganadilar, ammo depressiya yoki tashvish kabi salbiy his-tuyg'ular ham paydo bo'lishi mumkin.

3. Ijtimoiy aloqalar: Oila va do'stlar bilan aloqalar muhim ahamiyatga ega. Keksalikda ijtimoiy izolyatsiya xavfi ortadi, shuning uchun ijtimoiy faoliyat va qo'llab-quvvatlash muhimdir.

4. Sog'liq va faoliyat: Jismoniy sog'liqni saqlashga e'tibor qaratish, mashg'ulotlar bilan shug'ullanish va faol turmush tarzi keksalikda ruhiy salomatlikni yaxshilashda yordam beradi.

5. Yoshlik va ulug'likni qabul qilish: Keksalik davrida odamlar ko'pincha o'z yoshlarini va ulug'likni qabul qilishni o'rganadilar, bu esa ruhiy rivojlanishga yordam beradi.

Bu xususiyatlar keksalik davrida insonlarning ruhiy salomatligini va hayot sifatini ta'minlashga yordam beradi. Keksalik davrida odamlarning ruhiy holati ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi. Bu davrda insonlar ko'pincha o'z hayotlaridagi o'zgarishlar, yo'qotishlar va yangi tajribalar bilan yuzma-yuz kelishadi. Keksalikka o'tish bilan birga, nafaqat jismoniy holat, balki ruhiy holat ham o'zgaradi. [5]

Keksalardagi ruhiy hollarda ko'pincha izolyatsiya va depressiya kabi holatlar paydo bo'lishi mumkin. Bularning sababi, ish, oilaviy munosabatlar va sog'liq bilan bog'liq muammolar bo'lishi mumkin. Shuningdek, do'stlar va oila a'zolari bilan aloqa o'rnatish, shuningdek yangi faoliyatlar bilan shug'ullanish ruhiy salomatlikni yaxshilashi mumkin. Bundan tashqari, keksalikda insonlar ko'proq o'z tajribalarini o'rganishga, hayotni yanada chuqurroq anglashga intilishadi. Ruhiy rivojlanish imkoniyatlari ham mavjud, masalan, ko'ngilochar mashg'ulotlar, suhbatlar va o'qish orqali.

Gerontopsixologiya — yosh psixologiyasining bo'limi bo'lib, keksalik muammolarini o'rganuvchi psixologiya tarmog'i sifatida so'nggi vaqtlarda ko'p taqiqotchilar e'tiborini o'ziga tortmoqda. [3]

Gerantapsixologiya — keksalik davrida odamlarning ruhiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini o'rganadigan fan. U keksalarning psixologik holatini, ularning salomatligi, jamiyatga integratsiyasi va psixologik xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Gerantapsixologiya asosiy maqsadi keksayish jarayonida odamlarning hayot sifatini yaxshilashdir. Bu sohada tadqiqotlar keksalar orasida depressiya, kognitiv o'zgarishlar va ijtimoiy izolyatsiya kabi masalalarda olib boriladi.

Keksalik davrida odamlarning ruhiyati ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi va bu davrda yuzaga keladigan muammolar va o'zgarishlar keksalarning hayot sifatiga ta'sir qiladi. Asosiy jihatlar quyidagilar:

- kognitiv o'zgarishlar: keksalikda xotira, diqqat, va muvofiqlik kabi kognitiv funksiyalar zaiflashishi mumkin. Bu altsgeymer va boshqa demensiya turlari kabi kasalliklarning rivojlanishi bilan bog'liq.

- emotsional holat: keksalar ko'pincha depressiya, tashvish va yolg'izlikni boshdan kechirishadi. Oila a'zolari yoki do'stlarining yo'qolishi va ijtimoiy aloqalar chegaralanganligi emotsional salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

- ijtimoiy integratsiya: keksalikda ijtimoiy aloqa muhim ahamiyatga ega. Yolg'izlik hissi va izolyatsiya keksalar ruhiyatini yomonlashtirishi mumkin, shuning uchun ularni ijtimoiy faoliyatga jalb qilish zarur.

- sog'liq muammolari: jismoniy holat, kasalliklar va og'riq hissi ruhiy holatga ta'sir ko'rsatadi. Sog'liqdagi o'zgarishlar keksalarning ruhiyatini pasaytirishi mumkin.

- hayotiy tajribalar: keksalarning hayoti o'tmishdagi tajribalarga bog'liq.

Hayotdagi muvaffaqiyatlar, yo'qotishlar va o'lchovlar ularning ruhiy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Keksalik davrida ruhiy salomatlikni saqlash uchun ijtimoiy aloqa, faoliyat va psixologik yordam muhimdir. Qariyalarda bilish jarayonlaridagi farqlar bo'yicha tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, xotirani tekshirishda standart topshiriqlarni bajarishda 30 yoshli va 70 yoshli kishilar turli tezlikda bajaradi. Sodda kognitiv topshiriqlar, ya'ni turli predmetlarni kattaligi bo'yicha xotirada taqqoslashda qariyalarga yoshlarga qaraganda 50% ko'p vaqt talab etilgan. Topshiriq murakkablashtirilganda yoshlarga qaraganda qariyalarga 2 barobar ko'p vaqt talab etilgan (Baltes, 1993). [2].

Uzoq muddatli xotirani o'rganishga bag'ishlangan test natijalarida yosh farqlari kuzatiladi. Qator tadqiqotlarda qariyalar so'zlar qatorini qayta esga tushirishga qaraganda tanishga bo'lgan topshiriqlarni yaxshiroq bajarishi aniqlangan (Craik & McDowd, 1987) [1]. Ular materialni xotirada saqlash uchun ko'proq tanlovchanlikni namoyon qiladi. Qariyalarda foydasiz so'zlar ro'yxatini eslab qolish ichki isyonni keltirib chiqaradi. Shu bilan bog'liq ravishda ma'nosiz so'zlarni eslab qolishga bag'ishlangan tadqiqotlarda ular quyi natijalarni namoyon etishgan, ma'noli so'zlarni, qiziqarli iboralarni eslashda keksalar yoshlarga qaraganda yaxshi natija ko'rsatishgan (Meyer, 1987) Shunday qilib, qator olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, qariyalar ular uchun muhim hisoblangan va hayotda kerak bo'ladi, deb o'ylangan materialni yaxshiroq eslab qoladilar.

Xulosa qilib aytganda, keksalik davridagi ruhiy holat insonlar uchun muhim bo'lib, ularning hayot sifatini belgilovchi omil hisoblanadi. Ijobiy ruhiy holatni saqlash uchun ijtimoiy aloqa va yangi faoliyatlar amalga oshirish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. E.H.Erikson, "The Life Cycle Completed: A Review." 1982.
2. Baltes,P.B., & Baltes,M.M."Successful Aging: Perspectives from the Behavioral Sciences." 1990.
3. Davletshin M.G. va boshqalar "Yosh davrlar va va pedagogik psixologiya" T.TDPU. 2009.
4. Nishanova Z.T., Dusmuxamedova Sh.A., v.b. "Yosh davrlari va va pedagogik psixologiya".-T. Fan va texnologiyalar nashriyotining bosmoxonasi. 2013.-344 b.
5. О.И.Дорогина, Ю.В.Лебедева, Л.В.Токарская, Е.В.Хлыстова ГЕРОНТОПСИХОЛОГИЯ Учебное пособие Екатеринбург Издательство Уральского университета 2020.
6. Komilova, A., Husenova, M., & Xidirova, M. (2023). O'SMIR YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI KASB HUNARGA YO'NALTIRISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
7. Aziza,K.,&Xurshida, M. (2023). TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 419-422.
8. Aziza, K.,&Mohinabonu,H.(2023).TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 87-89.
9. Komilova,A.S.(2023). O 'QUV TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INDIVIDUAL YONDOSHUV. GOLDEN BRAIN, 1(31), 126-133.
10. Norbekova, B., Komilova, A., Arakulov, G., & Adilova, M. (2024, June). Formation of Network Attack Detection System Architecture. In International Conference on Inventive Communication and Computational Technologies (pp. 431-440). Singapore: Springer Nature Singapore.

THE IMPACT OF YOUTH SUBCULTURE ON PERSONAL IDENTITY

Otamuratov Rustam Uskanovich,

Otamuratova Sarvinoz Abdurazakovna

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan

rustamota1989@gmail.com

Abstract. The article analyzes the unique characteristics of the personality traits and values of representatives of youth subcultures, which are interpreted as one of the most relevant topics today, and analyzes the acceptance of subcultures in terms of their connection with personal identity.

Keywords: subculture, identity, youth, behavioral, Internet, emotional intelligence, image, hipster, computer games, goths, gamers, stereotypes, values.